

BXSR VA AFG'ONISTON O'RTASIDAGI SAVDO-SOTIQ ALOQALARI XUSUSIDA**Ahmadov Ahmadjon Asror o'g'li**

BuxDU "Arxeologiya va Buxoro tarixi" kafedrası dotsenti., t.f.f.d. (PhD).

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15009863>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Buxoro amirligining so'ngi yillari va Buxoro Xalq Sovet Respublikasi davrida qo'shni Afg'oniston bilan olib borilgan savdo-sotiq aloqalari ilmiy tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: Afg'oniston, Buxoro, savdo-sotiq, diplomatik aloqa, bozor, chegara, mahsulot, qorako'leri, to'qimachilik tovarlari, savdo aylanmasi.

ON TRADE RELATIONS BETWEEN THE BUKHAR REPUBLIC AND AFGHANISTAN

Abstract. This article scientifically analyzes trade relations with neighboring Afghanistan during the last years of the Bukhara Emirate and the Bukhara People's Soviet Republic.

Keywords: Afghanistan, Bukhara, trade, diplomatic relations, market, border, product, karakul, textile goods, trade turnover.

О ТОРГОВЫХ ОТНОШЕНИЯХ МЕЖДУ РЕСПУБЛИКОЙ КОРЕЯ И АФГАНИСТАНОМ

Аннотация. В статье научно анализируются торговые отношения с соседним Афганистаном в последние годы существования Бухарского эмирата и Бухарской Народной Советской Республики.

Ключевые слова: Афганистан, Бухара, торговля, дипломатические отношения, рынок, граница, товар, каракуль, текстильные изделия, товарооборот.

Buxoro amirligining tugatilishi yillarida ham qo'shni davlat Afg'oniston savdo-sotiq aloqalari to'xtab qolmagan. BXSR hukumati yillarida ham bu jarayon davom etib savdo-sotiq aloqalari almashinib turganligini ko'rishimiz mumkin. Tarixiy adabiyotlardagi ma'lumotlarga qaraganda 1918-yilda Buxoro amirligi omborlarida million pud paxta, 1 mln dona qorako'leri, 200 ming pud jun, 80 ming dona oshlangan qo'y terisi, 80 ming pud quruq mevalar, yana turli-tuman mahsulotlardan 300 ming pudi yig'ilib qolgan bo'lib, ularni tashqi bozorga olib chiqib sota olmayotgandi. Afg'oniston bilan yaqin aloqalar o'rnatish orqali Buxoro amiri bu mahsulotlarni jahon bozoriga olib chiqib sotmoqchi edi[1].

1920-yilning ikkinchi yarmida Afg'oniston chegaralari bo'ylab 663.000 pud g'alla, 12.234 pud gurunch, 63 pud choy, 17.798 pud go'sht, 108.014 pud beda, 103 dyuj. Ip, 141 arshin manifaktura, 230 pud jut (tola beradigan o'simlik) va boshqa mahsulotlar xarid qilingan[2].

1922-yil kuzida faqat Janubiy O'zbekiston BXSРning janubiy viloyatlaridan 120 tuya yuk Afg'onistonga o'tkazilgan. BXSР ichki ishlar nozirligining axborotiga ko'ra savdo-sotiq ishlarini keng yo'lga qo'yish va Afg'onistonga Buxoro tovarlarini yetkazib berish maqsadida Sherobod-Termiz-Darband-Yurchi yo'nalishlarida 220 ta, Qarshi-G'uzor-60 ta, G'uzor-Darband-60 ta, Sherobod-Darband-60 ta, Sherobod-Termiz-Beshkent-40 ta, Qarshi-Termiz-40 ta, ja'mi: 480 ta yuk ko'taradigan tuya zarurligi ko'rsatilgan[3].

O'rta Osiyo bozorlaridan qo'shni Sharq mamlakatlariga 1914-yilgacha olib chiqilgan asosiy tovalarning 80 foizi to'qimachilik mahsulotlari hisobiga to'g'ri keladi. Afg'onistonga chiqarilgan tovarlarning umumiy bahosi 5 mln 946 ming rubl bo'lsa, shundan 5 mln 137 ming rublni to'qimachilik mahsulotlari tashkil etgan. Biroq 1923-1925-yillarda Afg'onistonga 116.800 rubllik tovar olib chiqilgan bo'lsa, 9 000 ming rubl, ya'ni 7 foiz to'qimachilik mahsulotlarini tashkil etgan[4].

Chet eldan BXSРga keltirilgan tovarlar taqsimoti ham okruglardagi aholi soniga qarab taqsimlanib, Zarafshonga – 40 foiz, Sharqiy Buxoroga -20 foiz, Qashqadaryoga -17 foiz, Turkman okrugiga -12 foiz, Surxondaryoga -11 foiz miqdorida bo'lingan[5].

1914-yilga nisbatan 1920-yillarda savdo aylanmasining keskin tushib ketganligi bunga sabab sifatida litsenziyasiz savdo qilish muammosining hal etilmaganligi, to'qimachilik tovarlariga 2 foiz litsenziya to'lovi mavjudligi, bu tovarlar Afg'oniston bozorlarida qimmatlashganligi kabilar bunga sabab bo'lgan. Bundan tashqari to'qimachilik tovarlari afg'on bozorlariga xususiy savdogarlar orqali yetkazilganligi, davlat tashkilotlarining bunda ulushi kamligi hisobga olinsa, 2 foiz litsenziya to'lovi mahsulotlar narxini haqiqatdan ko'tarib yuborganligiga sabab bo'ldi.

O'rta Osiyo Iqtisodiy Kengashining 1924-yil oxirlaridagi qaroriga ko'ra ayrim tovarlarga litsenziya tartibi bekor qilindi. Lekin, ayrim tovarlar shakar, non va un, neft va metal mahsulotlari litsenziya tartibida amalga oshirilgan. Afg'onistondan SSSR ga paxta va paxta mahsulotlari, kunjut va zig'ir urug'lari, quruq mevalar, turli yong'oqlar, bo'yoqlar, ba'zi qishloq xo'jalik mahsulotlari litsenziyasiz o'tkazilishiga ruxsat berilgan[6].

Markaziy Osiyo mintaqasida ya'ni yagona makonda joylashgan Afg'oniston va Buxoro amirligi o'rtasidagi savdo-sotiq aloqalari muttasil davom etib turgan. Lekin, bu savdo aloqalarining turli davrlarda turlicha bo'lganligini, bu siyosiy munosabatlar bilan ham bog'liqligini ko'rish mumkin. Ba'zi vaqtlarda ikki mamlakat o'rtasidagi aloqalarning chigallashib ketganligini ko'rsak, ba'zi hollarda bu jihatlar do'stona tus olganligini kuzatiladi.

Aslida bu jihatlar mamlakat tepasiga kelgan hukumdorlarning siyosati bilan ham bevosida bog'liq bo'lgan.

1900-1913-yillarda Buxoro amirligi orqali Afg'onistonga nafis movut, surp, qalin surp, ipak matolar, oltin va kumushdan to'qilgan jiyak, ip, zar kalava, temir va mis simlar, charm, qog'oz, chinni idishlar pichoqlar, qand, bronza, simob, qizil va turli rangli bo'yoqlar, choy, mis, oq va sariq mum, lampa shishalari, baxmal, chit, paxta va ipak iplari, quyma cho'yan, quyma po'lat, qalayi quymasi, mis quymasi, gugurt, kerosin, sham va shamdonlar, golanteriya mahsulotlari, sovun kabilar olib borib sotilgan. Yuqoridagi buyumlar ro'yxati shuni ko'rsatadiki, savdo-sotiqda tovarlar soni ko'payib, ularning turlari 40 taga yetgan.

XIX asrning oxirida Buxoroning yillik tashqi savdo aylanmasi 40 mln so'mni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatgich birinchi jahon urushi arafasida 75 mlnga yetib, uning asosiy miqdori qorako'l teri, paxta, shoyi, gazlama, va meva savdosi hisobiga to'g'ri kelgan[7].

Xulosa qilib aytganda, Buxoro amirligining tashqi savdo-sotiq aloqalarida qo'shni davlat Afg'oniston roli muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Bu jarayon BXSR hukumati yillarida ham davom etib, Rossiya bosqini davrida Buxoro amirligi Afg'oniston bilan siyosiy, diplomatik munosabatlari faollashib u goh raqiblik, goh ittifoqchilik asosida bo'ldi.

Buning asosiy sababi ikki davlatning ham buyuk davlatlar ta'siri doirasidan chiqib keta olmaganligida edi. Shu sababli Buxoro va Afg'oniston ikki imperiyachi davlatlar Rossiya va Angliyaning yarim mustamlakasiga aylandi. Biroq savdo aloqalari o'zaro hamkorlikning doimiy, uzluksiz jarayoni bo'lib qolganligini tarixiy dalillar tasdiqlaydi.

REFERENCES

1. Искандаров Б. Бухара (1918-1920 гг.) – Душанбе. Издательство: Дониш, 1970. – С. 80.
2. Шодмонова С.Б., Юлдашев М. Бухоро амирлиги ва Туркистоннинг Афғонистон билан савдо алоқалари (XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср 20 йиллари)// ...-Б.194.
3. Ўзбекистон Миллий Архиви, Р-59-фонд, 1-рўйхат, 118-йиғма жилд, 29-варақ.
4. Ўзбекистон Миллий Архиви, Р-1-фонд, 1-рўйхат, 277 йиғма жилд, 204-варақ.
5. Ҳайитов Ш., Раҳмонов К., Аҳмадов О. Бухоро ва бухорийларнинг жаҳоний шухрати. Тошкент, «Наврўз», 2020. -Б.101.
6. Ўзбекистон Миллий Архиви, Р-1-фонд, 1-рўйхат, 92 йиғма жилд, 22-варақ.
7. Қосимов Ф.Ҳ. Истиқлол ва тарихий хотира (мақолалар тўплами).Бухоро-2006.- Б.139.; Ҳайитов Ш.А. Ватан меҳри. Бухоро., 2010.-Б.7.
8. Asror o'g'li A. A. PRINCE OF AFGHANISTAN ISAK KHAN ORIENTALIST DN IN THE INTERPRETATION OF LOGOPHET //Web of Semantics: Journal of Interdisciplinary Science. – 2024. – Т. 2. – №. 5. – С. 82-85.

9. Asror o'g'li A. A. History of Afghanistan-Bukhara Relations in the Process of Incorporation of Bukhara Emirate into Russian Customs System //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – T. 3. – №. 11. – C. 339-342.
10. Akhmadjon A. HISTORY OF BUKHARA-AFGAN RELATIONS IN THE PROCESS OF INCLUSION INTO THE RUSSIAN CUSTOMS SYSTEM //International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences. – 2023. – T. 3. – №. 3. – C. 39-46.
11. Ahmadov A. XX ASR BOSHLARIDA BUXORO VA AFG'ONISTON EMIGRATSIYASI VA REMIGRATSIYASI //Modern Science and Research. – 2025. – T. 4. – №. 1. – C. 842-845.
12. Ahmadov A. BUXORO AMIRLIGIDAGI AFG'ONLAR: HAYOTI VA FAOLIYATI XUSUSIDA //Modern Science and Research. – 2025. – T. 4. – №. 2. – C. 1304-1308.
13. Asror o'g'li A. A. et al. BUXORO VOHASIDAGI VARDONZE QO 'RG 'ONINING ANTIK VA O 'RTA ASRLAR DAVRI TARIXI //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2024. – Т. 45. – №. 5. – С. 84-87.
14. Asror o'g'li A. A., Farruxbek N. FARG 'ONA VODIYSIDAGI ILK SHAHARSOZLIK MADANIYAT (CHUST MISOLIDA) //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2024. – Т. 45. – №. 5. – С. 88-91.
15. Botirjon O'g'li N. S., Asror o'g'li A. A. UMARXON XUKMRONLIGI DAVRIDA QO'QON XONLIGINING HARBIY SALOHİYATI //JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE. – 2024. – Т. 3. – №. 5. – С. 374-377.
16. Ahmadov A. SHARQSHUNOS OLIM DN LOGOFET TALQINIDA BUXORO AMIRLIGIDA MAORIF VA DINIY SIYOSAT MASALALARI //" ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ" международный научно-методический журнал. – 2024. – Т. 16. – №. 8.